

Xoliqova Matluba Mardon qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistenti

xoliqovamatluba5@gmail.com

Tel raqam: +99899773-36-01

Muxtorova Maftuna Fazliddin qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVGA ASOSLANGAN O‘QITISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuvga asoslangan o‘qitish ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam berishi hamda kommunikativ yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirishi, ularda muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi haqidagi fikrlar to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ yondashuv, muloqot, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi, faollik, ta’lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматриваются идеи о том, что обучение на основе коммуникативного подхода в начальном образовании помогает эффективно организовать учебный процесс, а коммуникативный подход повышает активность учащихся и развивает их коммуникативные навыки.

Ключевые слова: коммуникативный подход, общение, начальное образование, учащийся, деятельность, учебный процесс.

Annotation: This article discusses the ideas that teaching based on a communicative approach in primary education helps to effectively organize the educational process, and that the communicative approach increases the activity of students and develops their communication skills.

Key words: communicative approach, communication, primary education, student, activity, educational process.

KIRISH. Boshlang‘ich sinflarda darslarni kommunikativ yondashuv yordamida o‘qitish usullari va metodlarining asosiy boyligi jamlangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o‘qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi nazarda tutiladi. Darslarida kommunikativ yondashuvlar asosida metod va usullarni tanlash o‘qituvchi darsda hal qilinishi belgilangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Binobarin, yangi materialni bayon qilishda bir xil metodlar foydalanilsa, uni mustahkamlashda va mohiyatni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo‘llaniladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Shu bois, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur

bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilash borasida “Ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamон talablari asosida takomillashtirish” ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [1].

So‘nggi yillarda jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy jarayonlar bizni rivojlanishning yangi usullarini tanlashga majbur qiladi va inson faoliyatining turli sohalarida, shu jumladan fan va ta’lim sohasida yangi kontekstni shakllantirish, bu yerda maktab ta’limining dastlabki davrida ham muvaffaqiyatli ta’lim uchun mustahkam poydevor qo‘yish muhimdir.

Ilmiy muammolarni hal qilishning mavjud usullari har doim ham maktab o‘quvchilarini o‘qitishning zamонaviy vazifalarini bajara olmaydi, bu esa ta’limni rivojlantirishning yangi strategiyalarini va vaqtga mos ta’lim modellarini ishlab chiqish uchun zarur degan xulosaga olib keladi.

ASOSIY QISM. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan kommunikativ yondashuvlar ta’lim jarayonini qiziqarli, faol va samarali qilishga yordam beradi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalg etish, ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Quyida boshlang‘ich ta’limda samaradorlikni oshirish uchun qo‘llaniladigan ba’zi kommunikativ yondashuvlar keltirilgan:

1. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv

Bu yondashuv o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yondashuv o‘quvchilarga faqat bilim berish emas, balki ularni turli vaziyatlarda o‘z bilimlarini qo‘llashga o‘rgatadi. Bu orqali o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish va mustaqil fikrlashga o‘rganadilar.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olinadi. Har bir o‘quvchiga alohida yondashish, uning o‘ziga xos qibiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvda har bir o‘quvchiga alohida o‘z yo‘nalishida muvaffaqiyat qozonish uchun sharoit yaratish asosiy vazifa hisoblanadi.

3. Loyihaviy ta’lim yondashuvi

Loyihalar asosida o‘qitish o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, axborot izlashga, o‘ylashga va yaratishga o‘rgatadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar biror mavzu bo‘yicha kichik loyihalar ishlab chiqib, uni sinfdoshlariga taqdim etadilar. Loyihalar o‘quvchilarning tadqiqot qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini oshiradi.

4. STEAM yondashuvi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi orqali o‘quvchilarda fanlararo ko‘nikmalar shakllandi. Bu yondashuv o‘quvchilarning ilmiy bilimlar, texnologiyalar va san’at orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. STEAM darslarida o‘quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilish yo‘llarini o‘rganadilar.

5. Texnologik yondashuv

Axborot texnologiyalarini o‘qitishda qo‘llash bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Interaktiv doska, kompyuter, plansheyti va boshqa texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini jonlantirish mumkin. Bu o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularga mavzuni yanada chuqr tushunishga yordam beradi.

6. Interaktiv yondashuv

Interaktiv yondashuv bu o‘quvchilarni faol muloqotga jalg qilish, guruhiy ishlar va rolli o‘yinlar orqali mavzuni o‘rganishni nazarda tutadi. Bu usul o‘quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni dars jarayoniga faol jalg etadi. Interaktiv o‘yinlar, savol-javoblar va jamoaviy topshiriqlar orqali o‘qitish samaradorligi oshiriladi.

7. Reflektiv yondashuv

Reflektiv yondashuv o‘quvchilarning o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash va kelgusida o‘qitishda xatolarning oldini olish uchun fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

8. Differensial yondashuv

Differensial yondashuv har bir o‘quvchining individual bilim darajasi va o‘rganish tezligiga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv orqali har bir o‘quvchining o‘z imkoniyatlariga mos topshiriqlar va faoliyatlar taqdim etiladi, bu esa o‘quvchilarning o‘zini ishonchli his etishiga va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

9. Muammo asosida o‘qitish yondashuvi.

Bu yondashuv o‘quvchilarni muammoli vaziyatlar orqali o‘qitishni ko‘zda tutadi. O‘qituvchi darsda biror muammoni taqdim etadi va o‘quvchilar uni yechish yo‘llarini topishga harakat qiladilar. Bu usul o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu kommunikativ yondashuvlar o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi va ularning darsdagi muvaffaqiyat darajasini oshiradi.

Ta’lim jarayoni uzliksiz bo‘lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bog‘liqdir. Davlatimiz rahbari, avvalo, maktablarda o‘quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko‘rib chiqish, o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta’kidladi. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiyy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo‘yicha dunyoda eng ilg‘orlardan biri. Ta’limni isloh qilish haqida fikr yuritar ekanmiz, ta’lim olishning asosiy vositasi bo‘lgan darsliklarni yangilamay turib, o‘quvchi va o‘qituvchi mustaqilligiga erishmasdan natijaga erishib bo‘lmaydi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning:“Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirkach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo‘ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun darsliklar qiladigan bo‘ldik. Finlandiya xalq ta’limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi”, degan fikrlari bu sohaga yuksak iqtidorga ega soha vakillarini jalg qilishni anglatadi. Barcha maktablarda “Milliy o‘quv dasturi”ni to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish amalga oshirildi. Boshlang‘ich mifiktab o‘quvchining umumiyy ta’lim jarayonidagi eng muhim bosqichdir. To‘rt yil ichida u nafaqat fan fanlarining dasturiy materialini o‘zlashtirishi, balki qanday o‘rganishni – “professional talaba” bo‘lishni ham o‘rganishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mas’uliyati doimo eksklyuziv bo‘lgan [2].

Kommunikativ yondashuv hozirgi vaqtida butun dunyoda keng tarqalgan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi tilda erkin muloqot qilishga, muloqotning turli vaziyatlarida o‘zini adekvat tutishga o‘rgatishdir. Ya’ni bu yondashuvda asosiy narsa muloqot paytida o‘zaro ta’sir va kommunikativ maqsadga erishishdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Shu bois, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilash borasida “Ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish” ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [3].

Kommunikativ yondashuvda o‘quvchilar o‘zlarini o‘quv jarayonida faol ishtirok etuvchi shaxslar sifatida his qilishadi. O‘quvchilarning faol ishtiroki, guruhda ishslash, muhokama qilish, o‘z fikrlarini bildirish kabi faoliyatlar ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kommunikativ yondashuv barcha o‘quvchilarni kommunikativ kompetensiyasini egallashga, ya’ni tildan to‘g‘ri va to‘g‘ri foydalanishga qaratilgan. Asosiy e’tibor o‘quvchiga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi faqat yordamchi hisoblanadi. Kommunikativ o‘quv va o‘quv dasturlarini tayyorlash uchun ehtiyojni tahlil qilish va rejalashtirishga asoslanadi.

Muloqot samaradorligini ta’minlovchi omillar ichida nutqning kommunikativ sifatlari alohida o‘ringa ega. Asosiy kommunikativ sifatlarga nutqning o‘rinliligi, boyligi, sofligi, mantiqiyligi, ifodaliligi va tushunarligi kiradi [4].

Kommunikativ yondashuvda axborotni bo‘shatish vazifalari kabi usullardan foydalaniladi. Axborot bo‘shligi bir kishi boshqasi bilmagan narsani biladigan vaziyatda yuzaga keladi.

XULOSA. Ta’limdagি kommunikativ yondashuvning o‘rni katta: U o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Muloqot orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalash, boshqa odamlar bilan samarali ishslash va jamoada ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish usullarini takomillashtirish o‘quvchilarning amaliy bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sun Farmoni. <https://lex.uz//docs/5841063>
2. Ochchildiyeva Mushtariy “Boshlang‘ich ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar”. Ta’lim sifati yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” www.kokanduni.uz. B.640.
3. Xoliquva M.M “**Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish usullarini takomillashtirish metodikasi (Ona tili darslari misolida)**”, “Pedagogik tadqiqotlar jurnali” № 2, noyabr, 2024. B. 119.
4. Xoliquva M.M “**Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini kommunikativ yondashuv asosida o‘rgatsih usullari**” .Integration of science and education, published: <https://journal.uzfi.uz>. 1 november 2024. B.141.